

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI IJOD MAKTABLARINING
9-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN
TEST SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

2026-2027- O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI IJOD MAKTABLARINING 9-SINFIGA QABUL IMTIHONI UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TEST SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarining 9-sinfiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha hujjat topshirgan nomzodlarning ona tili va adabiyot fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – nomzod o‘quvchilarining ona tili va adabiyot fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarining 9-sinfiga qabul qilish bo‘yicha qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi “Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 214-son qarori.

2. Ona tili va adabiyot fanidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-6- sinflar hamda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining 7-8-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarining 9-sinfiga o‘qishga qabul sinovida o‘quvchilarining ona tili va adabiyot fanini bilish darajasini aniqlash uchun jami **20 ta** yopiq test topshirig‘i taqdim etiladi. Topshiriqlarni bajarish uchun **40 daqiqa** vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Mazmun soha	Savol tartib raqami	Bilim, ko'nikma va kompetensiyalar	Topshiriq turi	Kognitiv darajasi	Ball
1. Ona tili (1-12 savollar) 12 ta					
Talaffuz va imlo	1	Tovush o'zgarishlari (fonetik hodisalar)ni bilish, o'zbek tilining asosiy imlo qoidalaridan xabardorlik.	Y1	B	1.9 ball
Leksikologiya	2	So'zlarni to'g'ri qo'llash, so'zning o'z (bosh) va ko'chma ma'nolariga oid topshiriqlarni bajara olish.	Y1	Q	1.9 ball
	3	Iboralarning sinonimligi. Ularning ma'nolari haqida tushunchaga ega bo'lish, tahlil qila olish.	Y2	Q	1.9 ball
	4	So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Ma'nodosh, zid ma'noli, shakldosh, paronimlarga oid topshiriqlarni bajara olish.	Y1	Q	1.9 ball
So'z turkumlari	5	Mustaqil so'z turkumlari, ularning xususiyatlari, yasalishi, qo'llanilishi, tuzilishi, gapdagi vazifalari, alohida jihatlar haqida tushunchaga ega bo'lish. So'z turkumlarining o'zaro umumiy hamda xususiy jihatlar haqida ko'nikmaga ega bo'lish.	Y1	B	1.9 ball
	6	Undov, taqlid, modal so'zlar. Ularning qo'llanilishi, xususiyatlarini bilish, tahlil qila olish.	Y1	Q	1.9 ball
	7	Bog'lovchi, yuklama, ko'makchilarning vazifasi va ular imlosi. Ular ishtirok etgan gaplar tahlilini olib borish.	Y1	Q	1.9 ball
	8	Ish harakat, holat va uning bajaruvchisi orasidagi munosabatni ifodalashga doir topshiriqlarni bajara olish.	Y1	Q	1.9 ball
Sintaksis	9	Undalma, uning ifodalanishi, undalma qatnashgan gapda tinish belgilarining qo'llanishini tahlil qila olish.	Y1	B	1.9 ball
	10	Ko'chirma gapli qo'shma gaplar. Ularni o'zlashtirma gapga aylantirish.	Y1	Q	1.9 ball
	11	Matnni o'qib tushuna olish, matn asosida berilgan topshiriqlarni ishlay olish.	Y1	M	1.9 ball
	12	Matnni tahlil qilish. Matn mazmuniga oid asosiy va qo'shimcha fikrni aniqlash.	Y1	M	1.9 ball
2. Adabiyot (13-20 savollar) 8 ta					

Hikmat durdonalari	13	Lutfiy, Alisher Navoiy, Jahon otin Uvaysiy ijodi, gazal, ruboiy, qit'a, fard va chistonlarga oid nazariy bilimlarga ega bo'lish va mumtoz matnga oid topshiriqlarni bajara olish.	Y1	Q	1.9 ball
	14	Adabiyot faniga oid atamalar izohini bilish. Adabiy janrlar namunalarini ajrata olish.	Y1	B	1.9 ball
	15	O'zbek she'riyatiga doir matnlarni tahlil qila olish, she'riy matnda keltirilgan obrazlar va badiiy tasvir vositalaridan xabardor bo'lish.	Y1	M	1.9 ball
Inson va tabiat	16	Jahon adabiyoti vakillarining ijodiga oid matnlarda qo'llanilgan voqealar bayoni bosh va yordamchi personajlar tasviri, ularning tahlilini bilish.	Y1	Q	1.9 ball
	17	Normurod Norqobilov, Ernest Seton Tompson, Ernest Hemingueylarning qalamiga oid bo'lgan asarlardagi voqealar bayoni personajlar tasviri, asarning bosh hamda yordamchi g'oyalari to'g'risida bilish.	Y1	Q	1.9 ball
Milliy meros	18	O'zbek nasri vakillarining asarlaridagi asosiy va yordamchi personajlarning xarakter xususiyatini tahlil qila olish.	Y1	Q	1.9 ball
	19	O'zbek tarixiy romanlari tahlili: Abdulla Qodiriy, Pirmqul Qodirov asarlarida voqealar bayoni, obrazlar tavsifi, asar xususiyatlarini tahlil qila olish.	Y1	M	1.9 ball
	20	Badiiy tahlil asoslariga oid hamda badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishiga doir topshiriqlarni bajara olish. Matnni o'qib tushuna olish, tahlil qila olish.	Y1	M	1.9 ball

IV. Kognitiv ko'nikmalar va baholash mezoni

Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini bajarishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan.

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar va baholash mezoni bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)	Jami
Bilish	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunishga qaratilgan	4	7.6
Qo'llash	Produktiv o'quv topshiriqlar o'quvchilar tomonidan o'rganilgan qoidalarni tanish vaziyatlarda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar berilgan ma'lumotlar	4	7.6

	asosida bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llaydi.		
	Produktiv o‘quv topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan qoidalarni tanish vaziyatlarda qo‘llash, o‘xshash vaziyatlardan farqlash, qiyoslash, muammoli vaziyatlarni aniqlashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o‘quvchilar berilgan ma’lumotlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llaydi.	7	13.3
Mulohaza qilish	Intellektual darajadagi topshiriqlar o‘zlashtirilgan bilim, va ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llash, faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarishni talab qiladi	5	9.5

Test topshiriqlari umumiy **38 ball** bilan baholanadi. Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun, shuningdek, javobi belgilangan tartibda belgilanmagan topshiriqlar uchun ball berilmaydi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Ona tili

1. 5-sinf. Ona tili darslik. N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopova. Toshkent – 2020.
2. 6-sinf. Ona tili darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Toshkent-2022.
3. 7-sinf. Ona tili darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Toshkent-2022.
4. 8-sinf. Ona tili darslik. Klaraxon Mavlonova va boshq.; muharrir O.Madvaliyev. Toshkent - 2025.

Adabiyot

5. 5-sinf adabiyot darligi. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. Toshkent – 2020.
6. 6-sinf. Adabiyot darslik. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Toshkent- 2022.
7. 7-sinf. Adabiyot darslik. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Toshkent- 2022.
8. 8-sinf. Adabiyot darslik. Z.Mirzayeva, N.Qodirova, Q.Mamiraliyev; muharrir X.Ibroximov. Toshkent- 2025.